



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 6 (8)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

6

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Karabayev R.Z. Raqamli iqtisodiyot: nazariy asoslari va O‘zbekistonda rivojlanish yo‘nalishlari.....	8
Ubaydullayeva N.A. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda kichik biznes korxonalarining rivojlanish strategiyalari: nazariy yondashuvlar.....	11
Xatamov A.A. Raqamli transformatsiya asosida ixtisoslashtirilgan savdo majmualarida moliyaviy resurslarni boshqarishni takomillashtirish.....	15
Yokubjonova X.Yo. Co-marketing strategiyasining ekoturizmni brendlashiga integratsiyasi: metodologik yondashuv va amaliy natijalar.....	19
Yusupova M.B., Jamoliddinova (Usmonova) S.S. Ustama xarajatlarni tasniflash va uning mahsulot tannarxini shakllantirishdagi ahamiyati.....	24
Abdug‘ofurova O.M., Yusupova M.B. Ishlab chiqarish korxonalarida tannarxni kalkulyatsiya qilish va uni takomillashtirish yo‘llari.....	27
Xojiboyev M.Sh. Xorijiy tajribalarni O‘zbekiston nodavlat oliy ta’lim muassasalari boshqaruv hisobi tizimiga moslashtirish: nazariy asoslar va amaliy istiqbollari.....	31
Исраилова Д.К. Глобализация в условиях демографического кризиса: социально-экономические риски.....	38
Qurbonova X.I. Bozor iqtisodiyotida davlatning makroiqtisodiy muvozanatni ta’minlash va inqirozga qarshi siyosati.....	43
Asqarov A.H. Oliy o‘quv yurti talabalarida moliyaviy savodxonlikni aniqlash me’zonlari (noiqtisodiy yo‘nalishi talabalar misolida).....	47
Yunusova S.A., Turg‘unboyev A.A. Eko-mehmonxona tushunchasi, turlari va asosiy xususiyatlari.....	51
Barnayev Z.Sh. Xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalari raqobatbardoshligining mazmun-mohiyati va xususiyatlari.....	55
Bobokulov A.A. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarining hududiy iqtisodiy integratsiyaga ta’siri.....	59
Рахимжонов Б.Б., Рахимжонов Б.Б. Инновационные процессы как фактор развития промышленных предприятий.....	63
Matmusayev M.O. Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari.....	67
Raxmatjonova G.E. Ishlab chiqarish korxonalarining asosiy vositalari buxgalteriya hisobini xalqaro andozalar talablari bo‘yicha takomillashtirish.....	72
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligi faoliyatida raqamli integratsiya darajasini baholash.....	76
Xaitova M.K. Raqamli platformalar orqali biznes modellarini yangilash va kompaniyalar strategik imkoniyatlarini kengaytirish.....	81
Yo‘ldashev M., Sotvoldiyev U. Davlat byudjetini taqchilligi va uni kamaytirish mexanizmlari.....	85
Maribjonov B.I., Arabboyev J.S. Tuman mahalliy byudjetidan moliyalashtiriladigan maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlarining 4-guruh xarajatlarining tahlili.....	88
Ro‘ziyev Sh.Sh. Hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari.....	92
Nematov G‘.G‘., Sotvoldiyev U.K. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning iqtisodiy asoslari va istiqbollari: deкупpling indeksi tahlili.....	95
Karimov D.M., Mustafayeva H. Xorij tajribasi asosida O‘zbekistonda pensiya tizimini takomillashtirish....	99
Ermatova S.I. Sanoat korxonalarida majburiyatlar tarkibi va moliyaviy barqarorlikning empirik tahlili (Andijon viloyati to‘qimachilik korxonalari misolida).....	104
Ermatov M.S. Sun’iy intellekt va mehnat bozorida raqamli inqilob: tahdidmi yoki kelajak imkoniyatimi?....	107
Azizova H.A. Raqamli transformatsiya sharoitida sanoat korxonalarining investitsion-innovatsion faoliyatini takomillashtirish yo‘llari.....	111
Юсупов А.С., Джангабаева Г.П. Международный рынок акций: содержание, виды и особенности..	114
Xusanova Z.R. Andijon viloyatida ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning xususiyatlari.....	119
Abdulazizov A.A. Energetika tarmog‘i korxonalarida ishlab chiqarish resurslaridan samarali foydalanishning nazariy asoslari.....	122
Norov A.E., Fazliddinov Sh.Sh., Erkinov X.X. Liderlik va motivatsiya o‘rtasidagi munosabatga ta’sir etuvchi omillar.....	126
Атаханова Ш.С., Мирхамидова Д.Н. Цифровая трансформация как инструмент достижения ESG-целей в нефтегазовой сфере Республики Узбекистан.....	131
Toxirov J.R. Mijozlarga yo‘naltirilgan raqamli marketing asosida savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish.	136

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 6-son 2026 yil

Sulaymonova F., Ro‘zimov B. Online ta’lim xizmatlari bozorining kengayishi natijasida an’anaviy ta’lim sektorida yuz berayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar.....	140
Zayavitdinova N.M. Hududda xizmat ko‘rsatish korxonalari faoliyatini boshqarish strategiyasini takomillashtirish.....	143
Odilova M.A. Kimyo sanoatidagi korxonalar faoliyatida resurslardan samarali foydalanish.....	147
Axmedova D.N. Mintaqaviy raqamli tayyorlik indeksining hududiy iqtisodiy o‘lishga ta’siri.....	151
Sapayeva N.K. O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatida yashil transformatsiya va B2B raqamli marketing asosida barqaror rivojlanish modeli.....	155
Allayarov S. Startup financing mechanisms: a comparative analysis of angel investment, venture capital, bank lending, and state grants.....	158
Махмудов О.Х. Moliya tizimining boshqa iqtisodiy tizimlar bilan aloqadorligi.....	162
Ibragimova M.M. “Yashil iqtisodiyot” va “Yashil tadbirkorlik” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni va evolyusion transformatsiyasi.....	167
Olimjonov A. Korxona faoliyatining samaradorligini oshirishda moliyaviy barqarorlik va rentabellik ko‘rsatkichlari o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilish.....	171
Rakhimboeva B.D. Analysis of the economic situation of the development of export activities of small businesses in Uzbekistan.....	174
Raxmatova F.Y. To‘qimachilik korxonalarida aylanma iqtisodiyot modelini joriy etishning iqtisodiy mexanizmlari.....	178
Ergasheva A.F. Milliy hunarmandchilik mahsulotlarini brendlash va bozorda pozitsiyalashning strategik yondashuvlari.....	181
Navruzova G.U. Theoretical models and institutional mechanisms, forms and structures of cooperation between education and manufacture.....	184
Djumayeva S.K. Yashil investitsiya muhitini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning makroiqtisodiy ta’siri (O‘zbekiston hududlari misolida).....	188
Pardayev TN., Muqimov A.R. Boymirzayev K.M. Jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan tovarlardan bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish.....	193
Ибодуллоева З.С. Экономические стимулы внедрения водосберегающих технологий в аграрном секторе Узбекистана.....	199
Ibragimova G.S. Ta’lim sifatini yaxshilashda innovatsion yondashuvlar va raqamli vositalar.....	203
Raxmatova S.S. Turizmni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘ziga xos xususiyatlari.....	207
Umarova M.M. Foreign brand spillovers and export performance of smes in emerging economies: a panel data analysis.....	212
Karimova F.A. Ekoturizmni barqaror rivojlantirishning xorijiy tajribasi va ularni O‘zbekistonda qo‘llash imkoniyatlari.....	217
Raxmanov B.I. Investitsiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish.....	221
Ashurova G.N. Charm-poyabzal sanoati korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	225
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	228
Эгамназарова Г.Ш. Рақамли тенгсизлик: давлатлар ва тармоқлар ўртасидаги технологик узилишларни камайтириш йўллари.....	232
Mamanazarov M.A. Iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantirishda milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning xorij tajribasi.....	236
Химматов А.Х. Йўл корхоналарини хусусийлаштиришнинг афзалликлари ва оқибатлари.....	241
Kambaraliyeva I.S. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozorining transformatsiyasi va raqamli ko‘nikmalarning ahamiyati.....	244
Muxiddinov T.Sh. Jizzax viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	248
Sayxdodjayeva N.I. Ijtimoiy va ekologik audit: barqaror rivojlanishni ta’minlashda zamonaviy nazorat mexanizmi.....	253
Fayzullayev J.N. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	257
Tursunova N.X. «Xayot sug‘urtasining iqtisodiy mohiyati va uning aholi moliyaviy xavfsizligini ta’minlashdagi roli».....	261
Abdishukurova G.M., Bozorboyev A.R. Sug‘urta kompaniyasi balansini “Risk tetraedri” modeli asosida baholash.....	266
Abdurasulova M.O. Zamonaviy iqtisodiyot nazariyasi asoschilari.....	270

Vaxidov A. Buxgalteriya hisobining tarkibiy tuzilishi - moliyaviy va boshqaruv hisobi.....	273
Turg‘unova T., Muftaydinov Q. Iqtisodiy zonalarda ekologik tadbirkorlikni investitsion va innovatsion qo‘llab-quvvatlashning xorijiy tajribalari.....	277
Kurbanov F.U. Raqamli iqtisodiyotning moliyaviy xizmatlar bozoriga ta’siri.....	283
Umarov T.S. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy barqarorligini statistik baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish.....	287
Rahimova N.A. Kichik biznes subyektlarida inson resurslarini boshqarish tizimidagi muammolari va ularni bartaraf etishda zamonaviy yondashuvlar.....	291
Yangiboyev U.A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy menejment tizimini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari va amaliy yo‘nalishlari.....	295
Махкамова Н.С. Роль зеленых облигации в финансировании проектов устойчивого развития.....	299
To‘xtarova F.Y. Analysis of tourism insurance practices and their economic efficiency.....	304
Anvarov Sh.D. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozorida investitsion muhitni rivojlantirishning institutsional va infratuzilmaviy omillari.....	308
Xalmirzayev O.A. Ko‘p obyektli savdolarida Vickrey-Clark-Groves mexanizmining samaradorligi tahlili....	313
Zaidov I.I. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bozorida raqobat munosabatlarini boshqarish mexanizmlari.....	318
Rahimova N.A. Inson kapitalini boshqarishning tashkilot raqobatbardoshligiga ta’siri.....	321
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida ta’lim kreditlarining iqtisodiy ahamiyati....	324
Bardiyev S.U. Mintaqada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy samaradorligini baholash: Xorazm viloyati misolida.....	328
Qulmatova S.S. Mahalla tizimida oziq-ovqat ta’minoti zanjirini IoT va sun’iy intellekt texnologiyalari asosida intellektual boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....	332
Aminov S.S. Mintaqada qurilish sohasidagi innovatsion rivojlanishga ta’sir etuvchi omillar.....	336
Дадабоева М.М. Кичик бизнеснинг иқтисодий тармоқлари бўйича ривожланиш тенденциялари.....	340
Numonjonova N.A. Kichik biznesni rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish	344
Абдулазизов А.А. Гидроэнергетика саноати ва унда ресурс тежаш жараёнларининг хорижий тажрибалари.....	348
Muradov O.U. Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo‘yicha xorijiy tajribalar va ulardan foydalanish imkoniyatlari.....	352
Saidova M.J. Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish tajribasi va uni O‘zbekistonda qo‘llash yo‘nalishlari.....	356
Umirova G.Sh. Qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida rentabellik ko‘rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorlikni baholash metodikasini takomillashtirish.....	360
Narmanov U.A., Nazarov J.B., Tursunaxmadov X.Sh. Moliyaviy risklarning iqtisodiy ahamiyati va uni boshqarishning zarurligi: risk tushunchasi va uning turlari.....	365
Nosirov S.N. Barqaror moliyalashtirish global bozorlari: zamonaviy tendensiyalar va rivojlanish muammolari.....	369
Farmanov J.Z., Sanetullaev A.E. Modeling of economic basis and forecast indicators of innovation transformation processes in agricultural entrepreneurship.....	373
Mirzataev S.M. Integration of digital and smart technologies in increasing the ecological resilience of the agricultural system.....	376
Kidirniyazov A.Sh. Development of artificial intelligence-based service monitoring systems for construction quality control.....	379
Абдуллаева Ш.Э. Халқаро индекслар асосида ижтимоий ҳимоя тизимини молиялаштириш.....	382
Mirjalolova M.M. Sun’iy intellekt texnologiyalarining O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik samaradorligini oshirishdagi o‘rni.....	389
Baytanov O‘.M. Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning tarmoq xususiyatlari.....	394
Умаров А.Т. Особенности развития социальной сферы в Узбекистане.....	400

**HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA MAHALLIY ISHLAB CHIQARISHNI
BOSHQARISHNING ZAMONAVIY USULLARI**

**MODERN METHODS OF LOCAL PRODUCTION MANAGEMENT IN REGIONAL
ECONOMIC DEVELOPMENT**

**СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕСТНЫМ ПРОИЗВОДСТВОМ В
РАМКАХ РЕГИОНАЛЬНОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ**

Ro‘ziyev Shuxrat Sharifboyevich

Buxoro davlat universiteti, Iqtisodiyot va turizm fakulteti,
Marketing va menejment kafedrası katta o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya

Maqolada hududiy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari kompleks tadqiq qilingan. Hududiy ishlab chiqarish tizimlarining nazariy asoslari A. Marshallning industrial districts (sanoat tumanlari) kontseptsiyasidan tortib M. Porterning klaster nazariyasi va zamonaviy aqlli ixtisoslashtirish (smart specialisation, RIS3) yondashuvigacha bo‘lgan evolyutsiya kontekstida tahlil qilingan. Tadqiqotda hududiy ishlab chiqarishni boshqarishning sakkizta zamonaviy usuli — klaster yondashuvi, aqlli ixtisoslashtirish, raqamli transformatsiya va Industriya 4.0, ESG-boshqaruv, lean-tamoyillar, qiymat zanjirini integratsiyalash, davlat-fan-biznes uchligi modeli va innovatsion ekotizimlar tizimlashtirilgan va qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: hududiy iqtisodiyot, mahalliy ishlab chiqarish, klaster yondashuvi, aqlli ixtisoslashtirish, raqamli transformatsiya, ESG-boshqaruv, qiymat zanjiri, Buxoro viloyati, MIBKI indeksi.

В статье комплексно исследованы современные методы управления местным производством в системе обеспечения регионального экономического развития. Теоретические основания региональных производственных систем проанализированы в контексте эволюции — от концепции «промышленных округов» А. Маршалла через кластерную теорию М. Портера к современному подходу умной специализации (smart specialisation, RIS3). Систематизированы и сопоставлены восемь современных методов управления местным производством: кластерный подход, умная специализация, цифровая трансформация и Индустрия 4.0, ESG-менеджмент, бережливое производство (lean), интеграция цепочки создания стоимости, модель «тройной спирали» (государство — наука — бизнес) и инновационные экосистемы.

Ключевые слова: региональная экономика, местное производство, кластерный подход, умная специализация, цифровая трансформация, ESG-менеджмент, цепочка создания стоимости, Бухарская область, индекс КИУМП.

The article comprehensively examines modern methods of managing local production within the framework of regional economic development. The theoretical foundations of regional production systems are analysed in the evolutionary context — from A. Marshall’s concept of industrial districts through M. Porter’s cluster theory to the contemporary smart specialisation (RIS3) approach. Eight modern methods of managing local production are systematised and comparatively analysed: cluster-based approach, smart specialisation, digital transformation and Industry 4.0, ESG management, lean production principles, value-chain integration, the triple-helix model (government — science — business), and innovation ecosystems.

Keywords: regional economy, local production, cluster approach, smart specialisation, digital transformation, ESG management, value chain, Bukhara Region, CILPM index.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev «O‘zbekiston — 2030» Taraqqiyot strategiyasida (2023-y. PF-158-son Farmoni) hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishni umumdavlat ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab berdi. Strategiyaning 100 ta maqsadidan 14 tasi bevosita hududiy iqtisodiy rivojlanishga, jumladan mahalliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va aholi farovonligini ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Mazkur kontekstda hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullarini ilmiy jihatdan tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hududiy iqtisodiy rivojlanish mamlakatning barqaror taraqqiyotini ta‘minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Har bir hududning tabiiy resurslari, mehnat salohiyati, infratuzilmasi, ishlab chiqarish imkoniyatlari va bozor talabidan samarali foydalanish mahalliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan mahalliy ishlab chiqarishni zamonaviy boshqaruv usullari asosida tashkil etish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Mahalliy ishlab chiqarishni samarali boshqarish hududlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish, import o‘rni bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hamda eksport salohiyatini kengaytirishga imkon beradi. Bunda raqamli texnologiyalar, innovatsion menejment, klaster yondashuvi, strategik rejalashtirish, marketing tadqiqotlari va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy boshqaruv usullari ishlab chiqarish jarayonlarida resurslardan tejamkor foydalanish, mahsulot sifatini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va bozor talabiga moslashuvchan ishlab chiqarish tizimini shakllantirishga yordam beradi. Ayniqsa, hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda mahalliy korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hududiy rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, mahalliy ishlab chiqarishni samarali boshqarish orqali hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta‘minlash va milliy iqtisodiyotning barqaror o‘sishiga erishish mumkin.

Ushbu mavzuni o‘rganishda ilmiy tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv, iqtisodiy-statistik tahlil, kuzatish va umumlashtirish metodlaridan foydalaniladi. Shuningdek, hududlarda mahalliy ishlab chiqarish holatini baholashda statistik ma‘lumotlar, korxonalar faoliyati ko‘rsatkichlari hamda mavjud boshqaruv tajribalari tahlil qilinadi. Taqqoslash metodi orqali turli hududlarda ishlab chiqarishni boshqarish usullari o‘zaro solishtiriladi, tizimli yondashuv esa mahalliy ishlab chiqarishning hududiy iqtisodiy rivojlanishga ta‘sirini kompleks o‘rganishga yordam beradi.

2020–2026 yillardagi adabiyotlarda hududiy iqtisodiy rivojlanish mahalliy ishlab chiqarish, sanoat kooperatsiyasi, klasterlashuv, innovatsion boshqaruv va raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq holda talqin qilinmoqda. OECD tadqiqotlarida O‘zbekistonda 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan rivojlanish strategiyasi sanoat ishlab chiqarishini oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va hududiy imkoniyatlardan samarali foydalanishga qaratilgani ta‘kidlanadi. So‘nggi ilmiy ishlarda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishda klaster yondashuvi, resurslardan oqilona foydalanish, infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni jalb etish asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi. 2022-yildagi tadqiqotlarda mahalliy va hududiy boshqaruv amaliyotlari hududlarning iqtisodiy salohiyatini oshirish, texnik imkoniyatlarni kengaytirish hamda rivojlanishdagi to‘siqlarni bartaraf etishga xizmat qilishi qayd etilgan. 2024–2026 yillardagi manbalarda esa hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish uchun innovatsion iqtisodiyot, inson kapitali, sanoat kooperatsiyasi va mahalliy korxonalarni qo‘llab-quvvatlash muhimligi ta‘kidlanadi. O‘zbekistonda 2026-yilda qabul qilingan hujjatlarda mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, yirik korxonalar va tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Tadqiqot jarayonida hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni samarali boshqarish muhim omil ekani aniqlandi. Mahalliy korxonalar faoliyatini zamonaviy boshqaruv usullari asosida tashkil etish hududlarda ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadlarini ko‘paytirishga xizmat qiladi.

Natijalar asosida aytish mumkinki, mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishda korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiyani kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish hamda infratuzilmani yaxshilash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlariga raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish resurslardan samarali

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 6-son 2026 yil*

foydalanish, mahsulot sifatini nazorat qilish va bozor talabiga tez moslashish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalliy ishlab chiqarishni zamonaviy boshqarish hududlar iqtisodiy salohiyatini oshiradi, ichki bozorni mahalliy mahsulotlar bilan ta‘minlaydi va eksport imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish hamda barqaror iqtisodiy o‘rtni ta‘minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

1-jadval

Qayta ishlash sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2023-yil	2024-yil	O‘zgarish
Qayta ishlash sanoati hajmi	—	753,6 trln so‘m	+7,7 %
YaIMdagi ulushi	19,4 %	20,2 %	+0,8 foiz punkt
Investitsiyalar tarkibidagi ulushi	28,6 %	29,3 %	+0,7 foiz punkt

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, mahalliy ishlab chiqarishni zamonaviy boshqarish hududlarning sanoat salohiyatini oshirish, iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirish va raqobatbardoshlikni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi. 2024-yilda O‘zbekistonda qayta ishlash sanoati mahsulotlari hajmi 753,6 trln so‘mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 7,7 %ga oshgan. Sohaning YaIMdagi ulushi esa 19,4 %dan 20,2 %ga ko‘tarilgan.

2-jadval

Hududlarning diversifikatsiya darajasi bo‘yicha guruhlanishi

Guruh	Hududlar	HHI ko‘rsatkichi	Natija
I guruh	Toshkent sh., Farg‘ona, Namangan	818–1447	Yuqori diversifikatsiya
II guruh	Samarqand, Sirdaryo, Qashqadaryo, Toshkent, Xorazm, Surxondaryo	1525–2431	O‘rta diversifikatsiya
III guruh	Qoraqalpog‘iston, Buxoro, Jizzax, Andijon, Navoiy	2514–6310	Pastroq diversifikatsiya

Toshkent shahri, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida diversifikatsiya darajasi yuqori bo‘lib, bu hududlarda ishlab chiqarish bir nechta tarmoqlar bo‘yicha muvozanatli rivojlangan. Bunday holat iqtisodiy xavflarni kamaytiradi, bandlikni oshiradi va hududning raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Qoraqalpog‘iston, Andijon, Buxoro, Surxondaryo va Namangan hududlarida HHI ko‘rsatkichining pasayishi sanoat tarkibida ijobiy o‘zgarishlar yuz berayotganini bildiradi. Bu bir tarmoqqa qaramlik kamayib, yangi ishlab chiqarish yo‘nalishlari shakllanayotganini ko‘rsatadi.

3-jadval

Ayrim hududlarda HHI ko‘rsatkichining o‘zgarishi

Hudud	2023-yil HHI	2024-yil HHI	Natija
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3145	2514	Yaxshilangan
Andijon viloyati	4761	3820	Yaxshilangan
Buxoro viloyati	3293	2590	Yaxshilangan
Surxondaryo viloyati	2886	2285	Yaxshilangan
Namangan viloyati	1604	1447	Yuqori guruhga o‘tgan

Ushbu natijalar mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishda klasterlashuv, sanoat kooperatsiyasi, raqamli boshqaruv va investitsiyalarni jalb etish muhimligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, diversifikatsiya darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda ishlab chiqarish barqarorroq bo‘lib, bir yoki ikki tarmoqqa qaramlik kamayadi. Natijada hududiy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi oshadi va iqtisodiy tafovutlar qisqaradi. Olib borilgan tadqiqot natijasida hududiy iqtisodiy rivojlanishda mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning zamonaviy usullari kompleks tahlilga tortildi va Buxoro viloyati misolida empirik baholash amalga oshirildi. Hududiy ishlab chiqarish tizimlari nazariyasi A. Marshallning sanoat tumanlari konseptsiyasidan zamonaviy aqlli ixtisoslashtirish yondashuvigacha jiddiy evolyutsion yo‘l bosib o‘tgan; barcha nazariy paradigmalarning asosida geografik kontsentratsiya orqali sinergetik samaraga erishish g‘oyasi yotadi. Mahalliy ishlab chiqarishni boshqarishning sakkizta zamonaviy usuli (klaster yondashuvi, aqlli ixtisoslashtirish, raqamli transformatsiya, ESG-

boshqaruv, lean-tamoyillar, qiymat zanjirini integratsiyalash, uchlik spiral modeli, innovatsion ekotizimlar) bir-birini to‘ldiruvchi xususiyatga ega va kompleks holda samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Asian Development Bank. (2024). *Uzbekistan: Country partnership strategy, 2024–2028*. ADB. <https://www.adb.org/documents/uzbekistan-country-partnership-strategy-2024-2028>
2. European Bank for Reconstruction and Development. (2024). *Uzbekistan country strategy 2024–2029*. EBRD.
3. OECD. (2025). *Roadmap for sustainable investment policy reforms in Uzbekistan*. OECD Publishing.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). *Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida* (PQ-4812-son).
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida* (PF-60-son).
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). *2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida* (PF-27-son).
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2026). *Mahalliy ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini yangi tizim asosida rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida* (PF-17-son).
8. United Nations Industrial Development Organization. (2020). *Industrial development report 2020: Industrializing in the digital age*. UNIDO.

UDK: 338.1

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING IQTISODIY ASOSLARI VA ISTIQBOLLARI: DEKUPLING INDEKSI TAHLILI

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ: АНАЛИЗ ИНДЕКСА ДЕКАПЛИНГА

ECONOMIC FOUNDATIONS AND PROSPECTS OF THE TRANSITION TO A GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN: DECOUPLING INDEX ANALYSIS

Nematov G‘anisher G‘ayrat o‘g‘li

Andijon Davlat Universiteti "Iqtisodiyot" yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar: Sotvoldiyev Ulug‘bek Kamilovich

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tishning joriy holati Tapio (2005) dekupling indeksi metodologiyasi asosida miqdoriy baholanadi. YaIM 2025 yilda 145 mlrd dollarga yetgan holda qayta tiklanadigan energiya ulushi atigi 1,0 foizni tashkil etib, zaif dekupling holati ($DI \approx 0,06$) qayd etilmoqda. "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi va PQ-436 qarorida belgilangan maqsadlar va real natijalar o‘rtasidagi farqlar miqdoriy jihatdan tahlil qilinadi. Yashil o‘tishning asosiy to‘siqlari — 3,8 mlrd dollarlik subsidiya, tartibga solish kamchiliklari va uglerod narxlashuvining yo‘qligi — asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, qayta tiklanadigan energiya, dekupling, Tapio indeksi, "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi, karbon emissiya, energiya intensivligi.

В данной статье на основе методологии индекса декаплинга Тапио (2005) количественно оценивается переход Узбекистана к зелёной экономике. При ВВП в 145 млрд долларов (2025) доля ВИЭ составляет лишь 1,0% — зафиксирован слабый декаплинг ($DI \approx 0,06$).